

ISSN (E): 2181-4570 RESEARCHBIB IMPACT FACTOR: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778; 2024: 5.073
VOLUME-2, ISSUE-5

O‘G‘IRLIK JINOYATINING JINOIY HUQUQIY BELGILARI VA OLDINI OLIB CHORALARI.

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti talabasi

Xursanova Zarina Anvarovna

Termiz davlat universiteti “Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi” kafedrasini o‘qituvchisi

Tursunov Behruz Normurod o‘g‘li

Annotatsiya: Zamon rivojlanib borayotgani sari aholining ehtiyojlari ham shunga mos ravishda ortib bormoqda, ammo oramizda moddiy ehtiyojlarini halol mehnat qilib qondirishdan ko‘ra qing‘ir yo‘llarni tanlaganlar ham yo‘q emas. Bunga bitta misol O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 169-moddasida o‘z aksini topgan og‘irlik jinoyatidir. Ushbu maqolada o‘g‘irlikning jinoiy huquqiy belgilari haqida hamda uning qanchalik ijtimoiy xavfli ekanligi 2010-2023- yillar oralig‘idagi statistikasini o‘rganish orqali tahlil qilib, Singapur qonunchiligi normalari asosida yanada chuqurroq tasavvurga ega bo‘lamiz.

Kalit so‘zlar: Jinoyat, o‘g‘irlik, ijtimoiy xavfli, talon-taroj, mulkdor, kissavurlik, va h.k.

CRIMINAL LEGAL SIGNS OF THEFT AND PREVENTIVE MEASURES.

Student of the Faculty of Law of Termiz State University

Xursanova Zarina Anvarovna

Lecturer of the Department of "Criminal Law and Civil Procedure" of Termiz State University

Tursunov Behruz Normurod o‘g‘li

Abstract: As time progresses, the needs of the population are increasing accordingly, but among us there are still those who chose hard ways rather than satisfying their material needs by honest work. One example of this is the serious crime reflected in Article 169 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. In this article, we will get a deeper idea about the criminal legal signs of theft and how socially

ISSN (E): 2181-4570 RESEARCHBIB IMPACT FACTOR: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778; 2024: 5.073
VOLUME-2, ISSUE-5

dangerous it is by studying the statistics between 2010 and 2023, based on the norms of Singapore law.

Keywords: Crime, theft, social danger, robbery, property, owner, larceny, etc.

УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ ПРИЗНАКИ КРАЖИ И МЕРЫ ПРОФИЛАКТИКИ.

Студент юридического факультета Термезского государственного университета

Хурсанова Зарина Анваровна

Преподаватель кафедры «Уголовное право и гражданский процесс»

Термезского государственного университета

Турсунов Бехруз Нормурод ўғли

Аннотация: С течением времени потребности населения соответственно возрастают, но среди нас все еще есть те, кто выбрал трудный путь вместо удовлетворения своих материальных потребностей честным трудом. Одним из примеров этого является тяжкое преступление, отраженное в статье 169 Уголовного кодекса Республики Узбекистан. В этой статье мы получим более глубокое представление об уголовно-правовых признаках кражи и ее общественной опасности, изучив статистику за 2010-2023 годы, основанную на нормах сингапурского законодательства.

Ключевые слова: Преступление, кража, общественная опасность, грабеж, имущество, собственник, воровство и др.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida mulk, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan Respublikamiz iqtisodiyotining negizini tashkil etadi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta’minlanadi va mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari hamda sudning qarorisiz mahrum etilishi mumkin emas deb belgilangan.¹ Shunday ekan mulkdorning roziligidisiz mulkdan foydalanish qonunga xilof va buning uchun qonunchiligidimizga bir qator

¹ [O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI](#)

javobgarliklarini belgilangan. Bu jinoyatlar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining X bobi”O‘zgalar mulkini talon-taroj qilish”da o‘z aksini topgan. O‘zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlarning bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-taroj qilish, firibgarlik va o‘g‘irlik kabi turlari mavjud. Bulardan hozirgi kunda ayniqsa voyaga yetmaganlar o‘rtasida yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etgani deb og‘irlikni deb aytishimiz mumkin. Bunga sabab o‘g‘irlikning yashirin ravishda sodir etilishi va buning natijasida tergov amaliyatida ochilmasdan qolishidir. Bu esa o‘g‘irlikning ijtimoiy xavflilagini oshiradi. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksining 169-moddasida o‘g‘irlik jinoyatga ta‘rif berilgan. Unga ko‘ra, O‘zganing mol-mulkni yashirin ravishda talon-taroj qilishga o‘g‘irlik deyiladi. O‘g‘irlik jinoyatining subyekti 14 yoshga to‘lgan har qanday jismoniy shaxs hisoblanadi. Bevosita obyekti esa, o‘zganing mol-mulkini muhofaza qilish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlardir. Mulk egasi, mulk ishonib topshirilgan yoki ixtiyorida turgan shaxsga sezdirmasdan, ular bo‘lmagan vaqtida yoxud mulkdor yoki boshqa shaxslar mulkning talon-toroj qilinayotganini anglamagan vaqtida sodir etilishiga talon-toroj qilishning yashirin usuli deyiladi. Agarda mulk egasi yoki mulk ixtiyorida bo‘lgan yoki u ishonib topshirilgan shaxs talon-toroj qilish chog‘ida hozir bo‘lsayu, ammo uxlayotgan yoxud alkogol yoki narkotik mastlik holatida bo‘lib talon-toroj sodir bo‘layotganini tushunib yetmasa, shaxsning qilmishi o‘g‘irlik deb kvalifikatsiya qilinadi. Shaxs o‘zganing mol-mulkni yashirin ravishda talon-taroj qilishga qaratilgan harakatlari boshqalarga ma’lum bo‘lganligini anglab, o‘z xatti-harakatini to‘xtatsa va jinoyat joyidan qochib, yashirinsa, uning qilmishi o‘g‘irlikka suiqasd deb hisoblanadi. Shuningdek, jabrlanuvchi yoki boshqa shaxslar mol-mulkining o‘g‘irlayotganini ko‘rgan bo‘lsada, aybdor bildirmasdan harakat qilyapman deb o‘ylagan bo‘lsa, bunday qilmishni ham o‘g‘rilik deb hisoblash zarurligi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining “O‘zgalar mulkini o‘g‘irlik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-taroj qilish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”ga Qarorining 1-bandida belgilangan.² O‘g‘irlik jinoyatiga huquqiy baho berishda e‘tiborga olish lozim bo‘lgan jihat shuki, u talon-taroj qilishning zo‘rlik ishlatilmaydigan turi hisoblanadi.

² O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999 yil 30 apreldagi «O‘zgalar mulkini o‘g‘rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»

O‘zganing mulki olib qo‘yilgan va aybdor shaxsda o‘g‘irlangan mulkni o‘z xohishiga ko‘ra tasarruf etishning real imkoniyati, ya’ni aybdorda o‘zi o‘g‘irlagan mulkni yashirish, sotish, berish, hadya qilish, belgilangan maqsadda foydalanish imkoniyati paydo bo‘lgan paytdan e’tiboran o‘g‘irlilik tugallangan jinoyat deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan o‘g‘irlilik g‘araz maqsadlarda to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor olingan o‘zganing mulkini nafaqat g‘ayriqonuniyligini va qaytarib berilmasligini, balki o‘z harakatlarining yashirin usullarini ham tushunib yetadi.

Bundan tashqari o‘g‘irlilik jinoyati sodir etilish usullariga qarab o‘g‘irlashtiruvchi holatlari ham mavjud bo‘lib, ular uchun javobgarlik Jinoyat Kodeksi 169-moddasi ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi qismlarida belgilab qo‘yilgan. 169- moddaning ikkinchi qismida:

- a) jabrlanuvchining kiyimi, sumkasi yoki boshqa qo‘l yukidagi ashyoga nisbatan o‘g‘irlilik ya’ni Kissavurlik - jabrlanuvchi shaxsan olib o‘tuvchi, shakli va tuzilishidan qat’i nazar, yengil olib o‘tiluvchi buyum va ashyolarga qo‘l yuki deyiladi.³ Kissavurlikning ijtimoiy xavfliligi shundan iboratki, aybdor jabrlanuvchining o‘zida bo‘lgan mol-mulkni olishga urinadi, agarda jabrlanuvchi payqab qolsa, unga nisbatan jismoniy zo‘rlik ishlatalishi ham mumkin;
- b) ancha miqdorda - O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksida ancha miqdor va ko‘p miqdor haqida aniq meyorlar belgilangan bo‘lib, *ancha miqdor* deb bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha bo‘lgan miqdorga aytildi. Ayni damda bazaviy hisoblash miqdori 340 000(uch yuz qirq ming), demak ancha miqdor 34 000 000(o‘ttiz to‘rt million)dan 102 000 000(bir yuz ikki million)gacha;
- v) bir guruhan shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib - o‘g‘irlilik jinoyatini sodir etish haqida *oldindan kelishib olgan ikki yoki undan ortiq shaxslar* ishtiroy etgan taqdirda o‘g‘irlilik jinoyatini bir guruhan shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan deb kvalifikatsiya qilinadi;

³ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999 yil 30 apreldagi «O‘zgalar mulkini o‘g‘rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”

- g) uy-joy, omborxona yoki boshqa xonaga g‘ayriqonuniy ravishda kirib sodir etilgan o‘g‘irlik - Aybdorning qilmishini uy-joy, omborxona yoki boshqa xonaga g‘ayriqonuniy ravishda kirib sodir etilgan o‘g‘irlik deb baholashimiz uchun aybdorning qilmishida *uy-joy, omborxona yoki boshqa binolarga g‘ayriqonuniy kirish namoyon bo‘lishi kerak*. Bunda aybdorning o‘g‘irlik qilish niyati g‘ayriqonuniy uy-joy, omborxona yoki boshqa binolarga kirishidan oldin yuzaga kelgan bo‘lishi zarur, agar aybdor shaxs uy-joy yoki omborxonaga boshqa maqsadlarda kirgan bo‘lib, uning jinoiy maqsadi keyin paydo bo‘lgan bo‘lsa aybdorning qilmishi uy-joy, omborxona yoki boshqa binolarga g‘ayriqonuniy ravishda kirib sodir etilgan o‘g‘irlik deb baholanmaydi;⁴

- d) umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz yoki vodoprovod tarmoqlariga tijorat maqsadlarida o‘zboshimchilik bilan ulanish yoxud elektr energiyasini, tabiiy gazni, sovuq yoki issiq suvni hisobga olish asboblariga, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoxud hisobga olish asboblarining ko‘rsatkichlarini o‘zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish yo‘li bilan;

- e) umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz yoki vodoprovod tarmoqlariga elektr energiyasi, gaz yoki suv ta’minoti tashkilotlarining mansabdor shaxslari yoki xodimlari tomonidan oldindan til biriktirib, tijorat maqsadlarida o‘zboshimchilik bilan ulanish yoxud elektr energiyasini, tabiiy gazni, sovuq yoki issiq suvni hisobga olish asboblariga, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoxud hisobga olish asboblarining ko‘rsatkichlarini o‘zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish yo‘li bilan sodir etilgan o‘girlik.⁵

Jinoyat Kodeksi 169-moddasining uchinchi qismida:

- a) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan - takroran o‘g‘irlik sodir etish deganda, shaxsning ikki yoki undan ko‘p marta o‘g‘irlikni sodir etganligi, ammo ularning birortasi uchun ham sudlanmaganligi tushuniladi. Agarda avvalgi sodir etgan o‘g‘irlik jinoyati uchun shaxs qonunda belgilangan tartibda javobgarlikdan yoki

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999 yil 30 apreldagi «O‘zgalar mulkini o‘g‘rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida

⁵ 169-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 13-martdagisi O‘RQ-822-soni [Qonuniga](#) asosan “d” va “e” kichik bandlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 14.03.2023-y., 03/23/822/0143-son — 2023-yil 15-iyundan kuchga kirgan).

**ISSN (E): 2181-4570 RESEARCHBIB IMPACT FACTOR: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778; 2024: 5.073
VOLUME-2, ISSUE-5**

jazodan ozod qilinganda, yoxud yangi o‘g‘irlilik sodir etilgan paytgacha aybdorning sudlanganligi qonuniy olib tashlangan yoki bekor bo‘lgan, jinoiy javobgarlikka tortish muddati o‘tgan shuningdek ilgari sodir etgan o‘g‘irlilik jinoyati uchun javobgarlik amnistiya akti yoki avf etish orqali olib tashlangan bo‘lsa, o‘g‘irlilik takroriy deb baholanmaydi;

- b) qonunga xilof ravishda axborot tizimiga kirib yoki undan foydalanib - aybdor shaxs o‘zganing hisobidagi pul mablag‘ini o‘zining hisobiga kompyuter tizimidan foydalanish huquqiga ega bo‘lmasdan turib amalga oshirgan bo‘lsa, jinoyat sodir etgan shaxsning qilmishi kompyuter tizimiga ruxsatsiz kirib sodir etilgan o‘g‘irlilik deb kvalifikatsiya qilinadi. Bu jinoyat aybdorning hisobiga pul mablag‘i tushgan paytdan tugallangan hisoblanadi;
- v) ko‘p miqdorda sodir etilgan o‘g‘irlilik - bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha bo‘lgan miqdor. Ya‘ni bu miqdor 102 000 000(bir yuz ikki million)dan 170 000 000(bir yuz yetmish million)gacha;
- g) neft quvurlarida, gaz quvurlarida, neft va gaz mahsulotlari quvurlarida o‘g‘irlilik sodir etilishi uchun javobgarlik nazarda tutilgan.


Jinoyat Kodeksi 169-moddasi 4-qismida esa quyidagilar:

- a) juda ko‘p miqdorda - bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravari va undan ortiq bo‘lgan miqdor. 170 000 000(bir yuz yetmish million) va undan ortiq;
- b) o‘ta xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan o‘g‘irlilik deb hisoblashimiz uchun aybdor shaxs o‘g‘irlilik jinoyati sodir etishidan oldin sud tomonidan uni o‘ta xavfli retsidivist deb topish to‘g‘risidagi hukmi qonuniy kuchga kirgan bo‘lishi lozim;
- v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan o‘g‘irlilik uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo‘lib, uyushgan guruh deb, ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashishiga aytildi.⁶ Uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab deyishimiz uchun esa jinoyatlar guruh manfaatlarini, so‘ng esa aybdorning subyektiv manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirish uchun sodir etilayotganligini tushunishi lozim.

⁶ <http://lex.uz//docs/-111453> O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi.

**ISSN (E): 2181-4570 RESEARCHBIB IMPACT FACTOR: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778; 2024: 5.073
VOLUME-2, ISSUE-5**

Yurtimizda o‘g‘irlik jinoyati qanchalik darajada rivojlanayotganini 2010-2023 yillardagi statistikani tahlil qilish orqali chuqurroq tasavvurga ega bo‘lamiz:




7

Yuqoridagi statistik ma'lumotlardan ko‘rinib turibdiki, sodir etilgan o‘g‘irlik jinoyatlari 2010-yilga qaraganda 2023- yilda qariyb uch mingtaga oshgan.

Sodir etilgan o‘g‘irlik jinoyatining Surxondaryo viloyatidagi ko‘rsatkichlariga to‘xtaladigan bo‘lsak:

⁷ Qarang: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>




Yuqoridagi ko'rsatkichlarni tahlil qiladigan bo'lsak Viloyatimizda o'g'irlik jinoyatini sodir etish darajasi 2014-2016 yillardagi oralig'ida keskin ko'tarilib ketgan. 2023-yilda esa nisbatan kam biroq bu ham yaxshi natija deb bo'lmaydi. Bulardan eng ko'p sodir etiladigani uydagi o'g'irlik ekanligi haqida qulog'imizga chalingan. Buning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish maqsadida jinoyatchilik darajasi ancha past bo'lgan davlat qonunchiligi tajribasini o'rganib chiqamiz. To'g'ri, hech bir davlatni jinoyatchilikdan holi deb bo'lmaydi, biroq jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida amalga oshirgan harakatlari va jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jazolaridan kelib chiqib nisbatan kamroq sodir etilishi mumkin. Bunday davlatlardan biri deb Singapurni misol qilib keltirishimiz mumkin, ya'ni singapurda o'g'irlik jinoyati boshqa davlatlarga nisbatan ancha kichik ko'rsatkichlarda sodir etilgan.

2014 yildan 2023 yilgacha Singapurdagi o'g'irlik va unga aloqador jinoyatlar(100 000 aholiga)

⁸Qarang: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>

ISSN (E): 2181-4570 RESEARCHBIB IMPACT FACTOR: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778; 2024: 5.073
VOLUME-2, ISSUE-5



9

2023-yilda Singapurda har 100 000 kishiga to'g'ri keladigan o'g'irlilik va unga aloqador jinoyatlar soni 145 tani tashkil etdi. Singapur doimiy ravishda dunyodagi eng xavfsiz mamlakatlardan biri sifatida qayd etilgan va umuman olganda jinoyat darajasi past. Bu ko'rsatkichga qanday erishildi degan savol barchani birdek qiziqtiradi. Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin:

Birinchidan, Singapurda o'g'irlilik jinoyatlarining oldini olishda samarali bo'lган asosiy omillardan biri o'g'irlilik jinoyati uchun qat'iy qonunlar va qattiq jazolarning mavjudligidir. Darhaqiqat ular huquqbazarliklar uchun to'siq bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari jinoyatchilikning oldini olishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar ham ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni bu fuqarolardan ogohlik hissini uyg'otadi.

Ikkinchidan, statistik ma'lumotlarga qaraganda, Singapurda uydagi o'g'irlilik tez-tez sodir bo'lib turar ekan, shu sababli ham kuzatuv kameralari va biometrik tizimlardan foydalangan holda o'g'irlilikning sonini sezilarli darajada kamaytirishga erishilgan.

Uchinchidan, fuqarolarning jamoatchilik harakatlarida faol ishtirok etishlarini keltirish mumkin. Sababi, faol fuqarolarning ko'payishi va sodir etilgan jinoyatchilik haqida darhol huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishi jinoyatni va jinoyatchi shaxsini vaqtida aniqlashga yordam beradi.

⁹ Qarang: <https://www.statista.com/statistics/628515/theft-and-related-crime-rates-in-singapore/>

ISSN (E): 2181-4570 RESEARCHBIB IMPACT FACTOR: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778; 2024: 5.073
 VOLUME-2, ISSUE-5

To‘rtinchidan esa, fuqarolarni ogohlilikka chaqirish maqsadida targ‘ibot va tashviqot ishlari muntazam olib boriladi.

Umuman olganda, qat‘iy qonunlar, samarali huquqni muhofaza qilish, jamoatchilik ishtiroki, texnologik yutuqlar, ta’lim va qadriyatlar uyg'unligi Singapurda o‘g‘irlik jinoyatlarining oldini olishga sezilarli hissa qit‘asi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Singapurda qonunchiligida ya‘ni "**PENAL CODE 1871**" Jinoyat kodeksining 378-moddasi "O‘g‘irlik" deb nomlangan bo‘lib, unda jinoyatga quyidagicha ta‘rif berilgan: *Har qanday ko‘char mol-mulkni shaxs, egasining roziligidiz olib qo‘yish niyatida bo‘lsa va boshqa joyga ko‘chirsa, o‘g‘rilik qilgan hisoblanadi.* O‘g‘irlik qilgan shaxs jinoyatining ijtimoiy xavfliligiga, og‘irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlariga qarab ozodlikdan mahrum qilish va jarima yoki ozodlikdan mahrum qilish va qamish bilan urish kabi jazolarga hukm qilinadi.

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib yurtimizda ham o‘g‘irlik jinoyati ayniqsa uydagi o‘g‘irlik keskin ortib bormoqda. Buni oldini olish maqsadida avvalo har birimiz o‘z mulkimizni asrab avaylashimiz zarur, xalqimizda "o‘zingga ehtiyyot bo‘l qo‘sningni o‘g‘ri tutma" degan maqol ham shundan dalolat beradi. Keyingi o‘rinlarda esa fuqarolarning faolligini huquqiy bilimlarini oshirishga harakat qilish, yoshlarni esa qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ya‘ni birovning mulkidan ruxsatsiz foydalanish mumkin emasligini uqtirish zarur. Bundan tashqari uydagi o‘g‘irlikni oldini olish uchun esa har bir turar joyga xavfsizlikni ta‘minlovchi signalizatsiyalarni hamda kameralari o‘rnatish maqsadga muvofiqdir. Shu yo‘llar orqali o‘g‘irlik jinoyatini keskin kamaytirishga erishish mumkin.

REFERENCES:

1. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI;
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi;
3. M.X Rustambayev O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi II V Tom;
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999 yil 30 apreldagi «O‘zgalar mulkini o‘g‘rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»;
5. «O‘G‘IRLIK JINOYATI TUSHUNCHASI VA PROFILAKTIKASI»

<https://inacademy.uz/index.php/ejar/article/view/12061/85>;

ISSN (E): 2181-4570 RESEARCHBIB IMPACT FACTOR: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778; 2024: 5.073
VOLUME-2, ISSUE-5

6. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>
7. <http://lex.uz//docs/-6445145>
8. <https://www.statista.com/statistics/628515/theft-and-related-crime-rates-in-singapore/>
9. <https://sso.agc.gov.sg/Act/PC1871>